

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI***

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'zbek adabiyoti kafedrası

REFERATI

Mavzu: «Ulug'bek xasinasi» romanini
o'qitishning samarali usullaridan foydalanib
o'rganish

Qo'qon - 2011 yil

I bob. Odil YOqubov – serqirra ijodkor.

1.1. Adibning hayoti va ijodiy faoliyati

1.2. Burch, diyonat, adolat muammosini yoritish yozuvchi ijodining bosh mavzusi

1.3. «Ulug’bek xazinası» - tarixiy romanchiligimiz ravnaqida muhim hodisa

II bob. «Ulug’bek xazinası» romanini o’qitishning samarali usullaridan foydalanib o’rganish

1.1. IX sinfda Odil YOqubovning «Ulug’bek xazinası» romanini o’rganish orqali o’quvchilarning fikrlash salohiyatlarini o’stirish usullari

1.2. Akademik liseylarda «Ulug’bek xazinası» romanini o’rganishda innovasion usullarini qo’llash

1.3. Portret asosida qahramon ruhiyatini o’rganish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

I bob. Odil YOqubov – serqirra ijodkor.

1. 1. Adibning hayoti va ijodiy faoliyati.

YUksak saviyadagi badiiy asarlar yaratishga qodir bo'lgan haqiqiy iste'dodlar kam uchraydi. Zabardast adib va jamoat arbobi Odil YOqubov ana shunday noyob iste'dod sohiblaridan biridir. U o'z ijodi bilan XX asr o'zbek adabiyotini boyitib, badiiy tafakkur taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdi.

Odil YOqubov 1927 yilda Qozog'istonning CHimkent viloyati Turkiston tumanidagi Otaboy qishlog'ida tug'ilgan. Odil YOqubovning bolaligi qaltis davrlarga to'g'ri keldi. Odil YOqubov beshinchi sinfga o'tgan, dunyoning g'am-tashvishlarisiz, beg'ubor bolalikning nash'asi bilan charx urayotgan bir paytda uning qanoti qayrildi. Davlat ishlarida band bo'lishiga qaramay, bolalariga kitob o'qib berishni kanda qilmaydigan otasi qatog'on qurboni bo'ldi. Har jihatdan nochor ahvolda qolgan Odil YOqubovlar oilasini qarindosh-urug'lari qishloqqa ko'chirib olib ketishdi. Ulardan mehrlarini darig' tutishmadi. Ayniqsa, maktab direktori bo'lib ishlaydigan pochchasi Ne'matulla aka oilaga, Odil YOqubovga samimiy ko'mak beradi. Uni maktabga o'qishga va ishga joylashtiradi. Uning maktab kutubxonasida ishlashi tashna yo'lovchining tasodifan chashmaga duch kelib qolishiga o'xshaydi. U bu erdagi kitoblarning hammasini o'qib chiqadi. Biroq ko'ngilli, dilni yayratadigan mashg'ulot ham uzoq cho'zilmaydi. Urush boshlanadi. Odil YOqubov sevimli ishini tark etishga – o'qishni tashlashga majbur bo'ladi. U urush davrida qishloq o'smirini qilishi shart bo'lgan barcha yumushlarni bajaradi. Ikkinchi jahon urushida qatnashish uchun yoshini bir yoshga katta ko'rsatib, 1945-yilda frontga ketgan. YAponiyaga qarshi olib borilgan harakatlarda qatnashish uchun bepoyon Gobi sahrosini yayov kezib chiqib, o'limlardan omon qolgan.

1945-1950 yillar orasida Odil YOqubov armiya safida xizmat qiladi. U YAponiya bilan bo'lgan urushda qatnashdi. SHunday qilib, Odil YOqubov yigirma besh yoshga etguncha turmushning uncha-muncha qiyinchiliklarini boshidan kechirdi. ehtimol, bu hayotning murakkabliklari, sinovlari Odil YOqubovning

shaxs sifatida ulg'ayishini ta'minlagandir, boy hayotiy tajriba yozuvchilik «ko'zi» ning tezroq ochilishiga olib kelgandir. Frontdan qaytgach, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMI)ning filologiya fakultetida o'qib, uni imtiyozli diplom bilan tugatgan (1956). O'zbekiston YOzuvchilar tashkilotida maslahatchi (1955-1959), «Literaturnaya gazeta» da maxsus muxbir (1959-1963, 1967-1970), «O'zbekfilm»da, O'zbekiston Kinomatografiya davlat qo'mitasida bosh muharrir (1963-1967), G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida (1970-1982) «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida bosh muharrir (1982-1987) bo'lib ishlagan. Odil YOqubov 1987-yildan 1996-yilgacha O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo'lib mehnat qildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach Odil YOqubov ijod qilish bilan birga, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Respublika atamashunoslik qo'mitasiga rais, Markaziy Osiyo Xalqlari madaniyati assambleyasining vitseprezidenti sifatida uzoq vaqt samarali ish olib bordi. Adib biografiyasiga, hayot tajribasiga oid bu faktlarni eslashdan maqsad shuki, ular adib asarlariga hayotiy zamin bo'lib xizmat etadi, bolalik taassurotlari, hayotda ko'rgan-kechirgan, ko'nglida chuqur iz qoldirgan voqea - hodisalar «Er boshiga ish tushsa...», «Diyonat», «Oq qushlar, oppoq qushlar», «Izlayman», «Adolat manzili» kabi asarlarida o'z ifodasini topdi, qissa va romanlaridagi hodisalar, hattoki uzoq o'tmishdan olib yozilgan «Ulug'bek xazinasini» romanidagi voqealarning bir uchi o'zi tug'ilib o'sgan qishloqqa borib taqaladi.

Odil YOqubov – serqirra ijodkor. U o'zining hikoya va ocherklari, publisistik maqola va pesalari, xususan, qissa va romanlari bilan kitobxonlar ommasining sevimli yozuvchisi bo'lib qolgan. Adib, ayniqsa, hikoya, qissa va roman janrlarida o'z iste'dodini to'liq namoyon qilgan. Zero, u Abdulla Qodiriy, CHo'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor kabi ustoz yozuvchilarning an'alarini yangi davrda davom ettirgan va rivojlantirgan. Odil YOqubovning «Vido», «Muzqaymoq» singari asarlari o'zbek hikoyachiligining go'zal namunalari.

Odil YOqubovning «Navro'z arafasidagi o'ylar», «Muruvvatni unutmaylik», «Qachon odam bo'lamiz», «Qishloqdagi fojia», «Nutq», «Namangan

tomonlarda», «Qashqadaryo gurunglari» kabi publisistik asarlarida ham xuddi shu xususiyat bo'rtib turadi. Zero, ularda mavzu va material yangi bo'lganidek, olg'a surilgan fikr va uning ifodasi ham go'zal va yangidir. SHunga ko'ra, Odil YOqubovning publisistik asarlari mavzu, g'oyaviy mazmun va badiiy mahorat jihatidan adabiyotimizda yangilik bo'ldi. Darhaqiqat, Odil YOqubovning publisistik maqolalarini mamlakat va xalq uchun hayot-mamot masalalari bo'lgan: mustaqillik, erk, taraqqiyot, adolat va tinchlik masalalari ko'tarilgan hamda dadillik va jasurlik bilan yoritilgan. SHuningdek, ularda qishloq ahli, xususan, qishloq xotin-qizlari hayotini tubdan yaxshilash, uni hozirgi kun talablari darajasida ko'tarish, o'lkamizni yanada obod va ko'rkam qilish, tabiatni sevishtirish, tabiat boyliklaridan tejab – tergap foydalanish haqida bong urilgan.

Odil YOqubov o'z publisistik maqolalarida ona tabiat, uning daxlsizligini ta'minlash, qadimiy chiroyini qaytarish, Orol dengizi fojiasi va uning asl sabablari haqida juda ta'sirli yozadi. Paxta yakkahokimligiga, paxtachilikda zaharli dorilarni haddan ziyod ishlatishga qarshi, paxtaning xarid narxini ko'tarish to'g'risida qimmatli fikrlarini o'rta tashlaydi.

Odil YOqubov tabiat boyliklarini isrof etishni, adolatsizlik va nohaqlikni, ko'zbo'yamachilik va qo'shib yozishni jamiyat tanasidagi jarohat deb ataydi. Maqolalarida bunday jarohatlarga qarshi kurashish, inson qadr-qimmatini ko'tarish g'oyasini olg'a suradi.

Odil YOqubovning qissachilik sohasidagi ijodiy izlanishlari g'oyat samaralidir. Adib turli yillarda «Bir feleton qissasi», «Tilla uzuk», «Muqaddas», «Ota izidan», «Matluba», «Qaydasan, Morika» kabi asarlar yozib, o'zbek qissachiligi taraqqiyotiga katta ulush qo'shdi.

Odil YOqubov qissalari – mavzu jihatidan rang-barang, mazmunan boy. Bu qissalarda zamondoshlarimizning murakab va jonli obrazlari chizilgan. Adib qissalarida tugab syujet va yorqin obrazlar yaratib, inson va zamin, vijdon va burch hayot haqida chuqur fikr yuritadi. Xalq hayotidagi ezguliklarning ahamiyatini ko'rsatib, halol ishlab, halol yashash g'oyasini ustalik bilan

ifodalaydi. Qing'irlik, nopoklik, xiyonat va sotqinlikni kesish qoralab, ularni badbaxtlikka, yuzi qoralikka qiyos qiladi.

SHunisi muhimki, Odil YOqubov qissalarida adolat va haqqoniyat, halollik va sadoqatning xiyonat, fitna-fasod, tuhmat, hiyla-yu mahr ustidan g'alabasi quruq bayon etilmaydi. Aksincha, badiiy tarzda, to'laqonli obrazlar vositasida jonli va tabiiy qilib ifodalanadi.

Odil YOqubovni yozuvchi sifatida elga tanitgan asar 1961 yili e'lon qilingan «Muqaddas» qissasi bo'ldi. «Tengdoshlar»dan, «Muqaddas» qissasiga qadar o'tgan o'n yillik davr go'yoki topish yilidagi betinim izlanish, odat tusiga kirgan adabiy qoliplar bilan murosasiz olishish, ma'shum «konfliktsizlik nazariyasi» asoratini, kitobiylik ta'sirini engib o'tish yillari bo'ldi. Muallif «Muqaddas» qissasida hayotning o'zidan olgan zavqini, o'z yurak dardini, hayajonlarini izhor etdi, o'zi qalamga olgan hayotiy hodisalarni ziddiyatlari, chinakam nafosati bilan kitobxonga etkaza oladi.

Qissada ikki yoshning hayotdagi ilk mustaqil qadamlari, quvonch va tashvishlari nihoyatda samimiy hikoya qilingan, eng muhimi, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gap kitobxon ko'nglini hayajonga solarli darajada go'zal bir poetik shaklni topa olgan.

Qissa qahramoni SHarifjon muayyan bir vaziyatda o'z irodasiga, harakat avvalo qahramonning o'zi uchun noxushlik olib keladi, eng aziz narsasi-sevgisidan, sevgilisidan judo bo'ladi. SHarifjonning qing'ir yo'llari bilan sevgilisi Muqaddas o'rnida o'qishga kirib qolishi bir tasodif, ammo shu tasodif zaminida yozuvchi hayotning muayyan haqiqati, ziddiyati, falsafasini ko'radi, yani hayotda ko'pchilik manfaatiga zid har bir xatti-harakat avvalo o'sha adomning shaxsiy manfaatiga ham zid tushishi juda ta'sirchan ifoda etadi.

«Muqaddas» yozuvchining bosh estetik, ahloqiy prinsiplarini shakllantirish asar sifatida ham qimmatli. «Muqaddas» so'zi faqat qissa qahramoni nomi bilangina bog'liq bo'lmay, yozuvchi asarda zo'r ehtirom bilan ilgari surgan insondagi eng aziz, muqaddas tuyg'ular – vijdon, burch, diyonat, imon-e'tiqod, adolat g'oyasini ham o'zida ifodalaydi.

«Muqaddas»dan «Diyonat», «Oqqushlar...» va «Adolat manzili»ga qadar adibning e'tiborga sazovor barcha asarlari xuddi shu muammo tevaragida aylanadi. Qisqasi, diyonat, imon-e'tiqod, ijtimoiy adolat – yozuvchi ijodining bosh ma'naviy muammosi, uning asosiy estetik prinsipi esa – haqiqatni aytish, hayotni murakkabligi bilan ko'rsatishdir.

Ma'lumki, diyonat, imon – e'tiqod, ijtimoiy adolat xuddi muhabbat kabi so'z san'atining qadimiy va boqiy mavzusi. Har bir davr uni yangicha qo'yadi, o'zgacha mezonlar bilan baholashni taqozo etadi, qolaversa, har bir adib unga o'zicha yondashadi. Burch, diyonat, adolat muammosi ham xuddi muhabbat kabi adabiyotda birdan – bir maqsad emas. Burch, diyonat davrning katta haqiqatlarini ifodalashga, muhim ijtimoiy masalalarni qo'zg'ash, kishilarning ko'ngil dardlarini izhor etishga, inson qalbi haqidagi haqiqatni ochishga qaratilgan taqdirdagina chinakam badiiy qimmatga ega bo'ladi.

Afsuski, 50-60 yillari yozilgan qator asarlarda burch, diyonat, adolat bir yoqlama, tor, sayoz yoritildi. Odil YOqubov qissa va romanlari bu xildagi andozalardan yiroq. Masalan: «Bir feleton qissasi»ni (1963) eslaylik. Jurnalist Uchqunjon yaxshi surishtirmay shoshma-shosharlik bilan bir vaqtlar mehnatda dong taratgan, keyinchalik esa engil hayot kechirish yo'liga kirib ketgan ayol haqida feleton yozib yuborgan. Uchqunjon katta xatoga yo'l qo'yganligini sezib qoladi, vijdon azobiga tushadi, asli pokiza yigit yuz bergan xatoni tuzatish uchun qalb da'vati bilan kurashga o'tlanadi xuddi o'sha kurash jarayonida, bir tomondan, qahramonning vijdoni, diyonat tuyg'usining kuchi namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchini hayajonga solgan hayotiy chigalliklarning ildizi ochila boradi. YOzuvchi dongdor ayol Saltanatni halokatga olib kelgan omillarni badiiy tahlil etib beradi. Ma'lum bo'ladiki, Saltanatni hissizlik, adolatsizlik, e'tiborsizlik shu kuylarga solgan, brigadir Mo'min akaning sovuqqonligi, eri Qulahmadning loqaydligi tufayli hayotdan, mehnatdan ko'ngli qoladi. SHunisi xarakterliki, Saltanatning ziddi bo'lmish brigadir odatdagi eskilikka yopishib olgan johil, mansabparstlardan emas, aksincha, u qo'ydek yuvosh, mo'min-qobil odam; Qulahmad ham feodal, xotin do'pposlaydigan zo'ravon erlar toifasidan emas,

aksincha, ko'rinishda bo'lsada, biroq har ikkovi ham turli ko'rinishda bo'lsada, biri – itoatkorlik, loqaydlik, hissizlik illatiga muhtalo, obro' bo'lsa kifoya, adamlarning hohishi – istaklari bilan ishlari yo'q. Olamga hayot ato etuvchi ayol zotiga shunchaki bir ish kuchi, ijrochi deb qaraydilar, ayol mehnatini qadrlashni xayolga ham keltirmaydilar. Saltanatning mehnatdan qo'l siltab engil hayot ko'chasiga kirishi shu xil loqaydlikka qarshi o'ziga xos bir isyon edi. Loqaydlik, hissizlik, adolatsizlik ko'ngilsiz oqibatlari jihatidan shafqatsizlikning o'zgacha bir ko'rinishidirki, qahramonning unga qarshi isyoni qalbimizni hayajonga soladi. Bu asar yozuvining hayot sari qo'ygan dadil qadami bo'ldi.

YOzuvchining romanlari tahliliga o'tishdan oldin yana bir qissasi – «Qanot juft bo'ladi» (1968) ustida to'xtalib o'tish darkor. Bu qissa yozuvchi ijodiy takomilida muhim o'rin tutadi. Qissa personajlari Akram, Sayyora, SHavkatjon, Nilufar, Murodjon, Sodiq – barchasi odatdagidek, burchga munosabat, imon-e'tiqod, diyonat, adolat tuyg'usi tonida tahlil etila boradi. SHu baxonada yozuvchi endi bir emas, bir necha ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy muammolarni ko'taradi. Muallif asarda kitobxon bilan qizg'in bahsga kirishadi. 60-yillar kishilari ma'naviy hayotida nimalar sodir bo'lyapti, qaysi odatlar maqbul, qaysilari nomaqul, xalqning ma'naviy yuksalishiga nimalar to'sqinlik qilyapti – yozuvchi shu savollarga javob axtaradi.

O. YOqubov «Muqaddas» dan boshlab deyarli har bir asarida «biror muhim masalani ko'tarish bilan barobar, qalamga olingan majarolarning hayotiy ildizini, sabablarini ochishga intiladi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi etuk realizmga xos analitik tasvir yo'lidan boradi. «Muqaddas»da SHarifjonni qing'ir yo'lga boshlagan omillar – oilaviy muhit ta'siri ta'kidlab o'tilgan. «Bir feleton qissasi»da bu xususiyat xiyla chuqurlashadi. «Qanot juft bo'ladi» qissasida esa yuqori bosqichga ko'tarilgan. Asarning etakchi personajlari Akromning ikkilanishlari iztiroblari, Sayyoraning adashishi, boshqa personajlar taqdiri va xarakteridagi kuchli va ojiz jihatlar faqat «tug'ma» xususiyatlari samarasi emas, balki ayni paytda real vaziyat, muhit mahsuli sifatida murakkab hayot bilan, fan-texnika inqilobi, davr sur'ati bilan bog'liq holda tahlil etiladi.

Analitik tasvirga moyillik adib ijodida etuk realizmga xos yana bir fazilatning shakllanishiga olib keladi uning qahramonlari murakkab tabiatli shaxslarga aylana boshladi. SHaxsga xilma-xil yondashish, hodisasining ham musbat, ham manfiy tomonlarini yodda tutishga intilish, odamni osongina «yaxshi» va «yomonga», «ijobiy» yoki «salbiy» qahramonga chiqarib qo'yishdan o'zini tiyish, inson qalbini his etgan holda qalam tebratish – mana shu fazilatlar Odil YOqubov asarlarida yaqqol ko'rinadi.

1.2. Burch, diyonat, adolat muammosini yoritish yozuvchi ijodining bosh mavzusi.

Odil YOqubov turli mavzularda qator hikoya, ocherk va qissalar yozib, nasrda muayyan tajriba hosil qilgach, o'z kuchini roman janrida sinab ko'rdi. Birin –ketin oltita roman yozib, katta nasrning mohir ustasi ekanini namoyish etdi. Odil YOqubov romanlari – mavzu jihatidan rang – barang. «Er boshiga ish tushsa...» (1965), «Diyonat» (1981), «Oq qushlar, oppoq qushlar» (1986), «Adolat manzili» (1994) romanlarida zamonaviy mavzular aks ettirilgan. «Ulug'bek xazinasi» (1973), «Ko'hna dunyo» (1983) romanlarida esa tarixiy o'tmish mavzulari tasvirlangan.

Odil YOqubov tarixiy o'tmish mavzuini aks ettirish va xalqimiz orasidan etishib chiqqan buyuk allomalar obrazini yaratishda «Ko'hna dunyo» romanida ham katta yutuqqa erishgan. «Ko'hna dunyo» - tarixiy-falsafiy roman. Unga mashhur tarixiy shaxslar – Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinoning ilm-fan taraqqiyotiga, xususan, tibbiyot ilmining rivojiga qo'shgan olamshumul hissasi badiiy yo'l bilan batafsil va teran aks ettirilgan. SHuningdek, ularning og'ir hayoti va fojiali qismati mahorat bilan tasvirlangan. Romanda Beruniy va Ibn Sino obrazlari o'z davrining ijtimoiy ziddiyatlari va shiddatli voqealari zaminida ko'rsatilgan. SHunga ko'ra asarda o'sha davr ruhi bo'rtib turadi. Asar xalqimizning uzoq o'tmishi, uning o'sha davrdagi turmush tarzi, urf-odatlar, milliy xususiyatlari haqida boy ma'lumot beradi. SHunisi muhimki, bu ma'lumotlar yalong'och tarzda bayon etilmaydi, balki benazr obrazli tarzda ko'rsatiladi.

«Ko'hna dunyo» romanining syujeti, asosan, rivoyatlar negizida tashkil topgan. Romanda ishlatilgan rivoyatlarni, ularning asar syujeti tuzilishdagi o'rniga ko'ra, uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Roman syujeti tarkibida «qistirma hikoya» sifatida berilgan rivoyatlar.
2. Roman syujetida aks bo'lgan voqealarning badiiy to'qimasiga singdirib yuborilgan rivoyatlar.
3. Roman syujeti tarkibidagi mif, afsona va rivoyat motivlari.

«Ko'hna dunyo» romanida, ayniqsa, telba shoh va avom xalq haqidagi, dono to'ti va besabr podshoh haqidagi, olam va uning yaratilishi haqidagi, «ne'mati ilohiy» to'g'risidagi, Abu Rayxon Beruniy va Mahmud G'aznaviy baxshiga doir rivoyat asar syujeti to'qimasiga ustalik bilan singdirib yuborilgan. Bu rivoyatlar romanda tasirlangan tarixiy voqealik hamda obrazlar ma'naviy olamining badiiy gavdalanishiga bevosita xizmat qilgan. Zero, romanda qo'llanilgan har bir rivoyat syujet rivoji bilan chambarchas bog'lanib, chatishib ketgan.

«Ko'hna dunyo» romanida Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud G'aznaviy singari tarixiy obrazlar, shuningdek, Bobo Xurmo, Malikul SHarob, Piri Bukriy, Ibn SHahvoniy, Amir Ma'sud, Ali G'azab, Abul Hasanak, Xatlibegim, Bo'tako'zbekim, Unsuriy kabi badiiy to'qima obrazlar yaratilgan. SHular vositasida o'sha davrdagi hayot haqiqati, xilma-xil odamlarning feli-atvori badiiy haqiqatga aylantirilgan Muhim falsafiy fikrlar ta'siri va obrazli qilib ifodalangan. Rivoyatlarga singdirilgan xalq donishmandligining ma'no va mohiyati ochib berilgan.

«Ulug'bek xazinasini», «Ko'hna dunyo» asarlariga xos bo'lgan yorqin badiiy umumlashmalar adibning «Diyonat», «Oq qushlar, oppoq qushlar», «Adolat manzili» romanlarida ham ochiq ko'rinadi. Bu keyingi uch roman zamonaviy mavzularni yoritilishda yozuvchi imkoniyatlarining tobora ko'payib, mahorati yanada o'sganligidan dalolat beradi.

«Diyonat» romanida O'zbekistonning XX asr 70-yillaridagi hayot tasvirlangan. Asarda qishloq va shahar hayotidagi ibratli jihatlar ham, salbiy hodisalar, illatlar ham ustalik bilan ochib berilgan. Kishilar ruhiyatidagi halollik, poklik, kamtarlik, imoni diyonat singari fazilatlar ulug'lanib, o'sha yillarda ancha ildiz otgan mansabparstlik, qonunbuzarlik, ko'zbayamachilik, manmanlik, diyonatsizlik kabi illatlar fosh etilgan.

Romanda etuk olim va kamtar inson Normurod SHomurodov, tuman rahbari Abror SHukurov, biolog olim Siddiqjon Obidov, raisning kelini Latofat singari obrazlar qalbi ham ishi va niyati ham go'zal bo'lgan ajoyib kishilar sifatida hurmat bilan tasvirlangan. YOzuvchi bu qahramonlarning har bir harakatini,

yurish-turishini, o'y-xayollarini mantiqan asoslashga, ularning ichki va tashqi dunyosini, fe'l-atvorini tabiiy va ishonarli qilib ko'rsatishga muyassar bo'lgan.

Kolxoz raisi Otaqo'zi Umarov «Diyonat» romanidagi asosiy obrazlardan biridir. Adib ilg'or kolxozning shuhratparst raisi Otaqo'zining tashkilotchilik qobiliyati, ishchanligi va uddaburonligini tasvirlash bilan birga, undagi manmanlik, o'zboshimchalik, mansabni suistemol qilishlik, qo'l ostidagi kishilarga jabr qilishdan tap tortmaslik, ko'zbayamachilik kabi yaramas xususiyatlarni ham ko'rsatadi. Romandagi Vohid Mirobidov, Jamol Bo'riboev obrazlari vositasida ham turmushda, ayrim shaxslarda mavjud bo'lgan salbiy sifatlarni aks ettiradi. «Diyonat» romanida hayot haqiqati keng miqyosda tasvirlab berilgan.

«Diyonat»da o'tgan asrning 70-yillari voqeligi tasvirlangan bo'lsa, «Oq qushlar, oppoq qushlar» romanida 80-yillarning boshlarida mamlakatda mavjud bo'lgan hayot haqiqati aks ettirilgan. Odil YOqubov o'zining bu romani haqida fikr yuritib: «Deydilarki, dunyoda oq qishlarday beozor, pok beg'ubor qushlar yo'q emish. Men ana shunday qushlarda bebaho fazilatli mehnat kishilarini ko'raman. Ayrim hollarda poraxo'rlik, ig'vogarlik, mansabparstlik illatlari ildiz otgan 80-yillar boshida ham o'zlariga gard yuqtirmay pokiza yashab, halol kun ko'rgan zahmatkash bobodehqonlarimizni o'sha go'zal oq qishlarga qiyos qilgum keladi. Va shu boisdan asarimning nomini «Oq qushlar, oppoq qushlar» deb atadim», - degan edi.

Odil YOqubovning «Adolat manzili» romanida 1984-1988 yillarda «paxta ishi», «O'zbek ishi» bahonasida O'zbekistonda bo'lib o'tgan fojiali voqealar ro'yirost tasvirlangan. Adib poroxo'rlik va ko'zbayamachilikka qarshi kurashib, adolat o'rnatamiz, deb Moskvadan O'zbekistonga kelgan desantchi tergovchilarning mudhish kirdikorlarini, ularning hech qanday qonun-qoidaga va ahloq-odobga to'g'ri kelmaydigan razil qilmishlarini ayovsiz ochib tashlagan. Ana shu dahshatli voqealarni tasvirlash jarayonida O'zbek xalqiga xos bo'lgan halollik, bag'rikenglik, saxiylik, e'tiqodga sodiqlik, adolatga ishonch, sabr-toqat va fidoyilik singari olijanob insoniy fazilatlarni umumlashtirib ko'rsatgan.

Roman syujeti markazida pok va halol, kamtar va fidoyi bir o'zbek oilasining hayoti turadi va bu oqko'ngil, bag'rikeng oila hayoti yozuvchi tomonidan ustalik bilan tasvirlab berilgan. Asarda Veteran bobo boshliq bu ibratli oilaga mansub bo'lgan katta-kichik obrazlarning hammasi samimiy muhabbat va mehr bilan yaratilgan.

Asarning bosh qahramoni – Suyun Burgut. Uning ismi jismiga mos. Suyun – halol ishlab, halol yashaydigan inson. U – mehr-oqibatli, oriyatli, mard va tanti. SHoirtabiat bu olov yigit yoshligidan maktabdoshi Marjonoyini sevib qoladi va balog'atga etgach, qizni Marjonoyini olib qochadi. SHirin – shakar oila quradi. Keyinchalik Veteran bobo yordamida o'qib, oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lib etishadi. Voqealar davomida o'sib, yirik chorvador sovxozga direktor bo'ladi. Xo'jalikka mohirlik bilan rahbarlik qilib, uning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishini ta'minlaydi. Davlat va adolatli boshliq sifatida ko'pchilikning hurmatiga sazovor bo'ladi. Xo'jalik a'zolarining to'y-marakasiga ham, tashvishli, motam kunlarida ham ular bilan birga bo'lib, qo'lidan kelgan barcha yaxshiliklarni qiladi.

Biroq qo'qqisidan kelgan falokat tufayli Suyun Burgut mudhish tuhmatga uchraydi. Moskvadan «haqiqat qilgani» kelgan general SHaronovski boshliq battol va shafqatsiz desantchilar uni asossiz holda ko'zbo'yamachilik va poraxo'rlikda ayblab hibsga oladilar. Suyun Burgutni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan behad qiynab, azoblaydilar. Lekin ular bu pok va mard inson irodasini buka olmaydilar. Bundan g'azablangan desanchilar mahbusni azoblashning hayotda misli ko'rilmagan yangi-yangi usullarini ishlatib, uni taslim ettirmoqchi bo'ladi. Biroq bunga erisha olmaydi.

Romanda Suyun Burgut hamda uning hali o'n gulidan bir guli ham ochilmagan o'g'li Lochin polvonning o'limi kitobxonlar qalbini larzaga soladigan darajada teran va g'oyat ta'sirli qilib aks ettirilgan. Bu ikki fojiali o'lim tasviri orqali adib desantchi – tergovchilarning yurtimizni oyoqosti, xalqimizni xoru zor etib, kechirilmas va unitilmas gunoh, katta jinoyat sodir etganliklarini yaqqol ko'rsatib bergan.

Asarda desantchilarning haqiqiy basharalarini ochib tashlovchi xarakterli voqea va asosli tasvirlar ko'p. Romanda ko'rsatilishicha, desanchilar na qonun-qoidaga rioya qiladilar, na xalqning urf-odatlarini hisobga oladilar. Aksincha, o'z qora niyatlariga etish yo'lida istagan noma'qulchilikni, istagan razillikni qila beradilar. Aybsiz «Aybdor» mahbusni xo'rlash, haqorat qilish, talash, kaltaklash, uning g'ururini, nozik insoniy tuyg'usini toptashdan qaytmaydilar. Desanchilar, hatto Suyun Burgutning ko'z oldida uning jufti haloli Marjon suluvni qamoqxonadagi bezorilarga zo'rlatmoqchi bo'ladilar. Natijada ilojsiz qolgan Suyun Burgut desantchilarni dog'da qoldirib, o'zini-o'zi o'ldirishga majbur bo'ladi. YOzuvchi bu dahshatli holni har jihatdan asoslab bergan. Suyun Burgutning xatti-harakatlarida hech qanday soxtalik va g'ayritabiiylik yo'q. Zero, oriyatli inson Suyun Burgutning o'zini o'ldirishdan bo'lak iloji qolmagan edi.

Romandagi Veteran bobo-fidoi, mehribon, adolatli inson. Uning e'tiqodi – mustahkam, diyonatli-mahkam, vijdoni-pok. U desantchi – tergovchilarning jinoyatkorona qilmishlarini ko'rgach, tinch o'tira olmaydi. Adolat istab poytaxt Toshkentdagi tegishli idoralarga va mansabdor shaxslarga murojaat qiladi. Lekin hech qanday najot topa olmaydi. Oxir-oqibatda og'ir hasatalikka uchrab yotib qoladi. Adib boboning bunday harakatlarini va uning haqli talablari oqibatsiz qolganini tasvirlash bilan respublikamiz hayotidagi nozik bir jihatga ishora qiladi. YA'ni, u vaqtda O'zbekiston mustaqil bo'lmagani uchun hamma inson-ixtiyori Moskvaning qo'lida bo'lib, yurtimizda desanchi-tergovchilarning ra'yini hech ham qaytara olmas edi, degan fikr o'tkazilgan.

«Adolat manzili» romanida mavzu va mazmun yangi bo'laganidek, asosiy obrazlar ham betakror va salmoqdor. YOzuvchi nomlari yuqorida zikr etilgan ijobiy obrazlarni yaratishda qanchalik mahorat ko'rsatgan bo'lsa, adolat o'rnatish niqobi ostida yurtimizga bostirib kelib, odamlarni qon qaqshatgan «adolat posboni» general SHaronovskiy yoki o'zimizdan chiqqan «eshakmiya tergovchi» Mirjalolov, sobiq sovxoz direktori Mansur mesh kabi nopok shaxslar obrazlarini tasvirlashda ham shunchalik yutuqqa erishgan.

«Adolat manzili» romanida xilma-xil ramziy obrazlar ham mavjud. Lochin polvonning tengsiz go'zal va uchqur oti Qaldirg'och, bo'ribosar it qoplon singari ramziy obrazlarda insoniyat va hayvonot, vafo va sadoqat olamiga doir muhim fikrlar badiiy teranlik bilan ifodalangan.

Roman – tuyg'ular tug'yoni, shiddatli voqealar va o'tkir ziddiyatlarning yorqin ifodasi bo'lgan teran dramatik va tragik lirik nofosat bilan yo'g'rilgan. Bu xususiyat Suyun Burgut va uning jufti haloli Marjon suluvning yoshligi, sho'xligi, sevgi-muhabbati, qishloqdagi to'y-tomosha va o'lan-aytishuvlar tasvirlangan sahifalarda, ayniqsa, ochiq ko'rinadi.

Umuman olganda, Odil YOqubovning «Adolat manzili» romanida O'zbekistonda o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida bo'lib o'tgan voqealar mohirona aks ettirilgan. Milliy mustaqillik mohiyatini chuqur anglashga xizmat qiluvchi bu asar zamonaviy adabiyotning jiddiy yutug'idir

II bob. «Ulug'bek xazinası» - tarixiy romanchiligimiz ravnaqida muhim hodisa.

YOzuvchiga katta shuhrat keltirgan asar «Ulug'bek xazinası» romani bo'ldi. Davrimizning ulkan adibi CHingiz Aytmatov «Ulug'bek xazinası» romani haqida shunday yozadi:

«YAxshi kitob haqida gapirish maroqli. Bu – yuksak va olijanob proza namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi. Bu esa yaxshi asarning birinchi alomati. Bundan ham muhimi shundaki, romanni o'qirganman, ko'nglimda turkiy xalqlarimiz tarixi uchun iftixor tuyg'usi jo'sh urdi. Ulug'bek shunday dahoki, u bizning asrlar osha tariximizga, zaminda tutgan mavqeimizga guvoh. Ulug'bek – bizning insoniy tajribalar haqida, dunyo haqida yuksak mezonlarda turib mulohaza yuritish, hukm-saboqlar chiqarish uchun asos bergan shaxs...»

Ma'lumki, Ulug'bek haqida bir qancha badiiy asarlar bor, ular orasida M. SHayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» tragediyasini chetlab o'tishi mumkin emas. Odil YOqubov ham Maqsud SHayxzoda tajribalaridan bahramand bo'lgan. Roman bilan tragediya orasida talay umumiyliklar mavjud.

CHunonchi, roman ham xuddi tragediya kabi Ulug'bek hayotining so'nggi davrini hikoya qilishdan boshlanadi, tragediyadagi ko'pgina tarixiy faktlar romanda ham tilga olinadi, bir qancha tarixiy shaxslar bu erda ham ishtirok etadilar. SHu bilan barobar, «Ulug'bek xazinası» faktlar, tarixiy shaxslarning badiiy talqini, o'zining uslubiy, g'oyaviy-badiiy yo'nalishi jihatidan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasidan keskin farq qiladi.

Bizda tarixiy janrning ikki ko'rinishi mavjud. Birinchi tur asarlarda tarixiy faktlarga izchil rioya etiladi, tarixiy hodisalarni badiiy gavdalantirish yozuvchining asosiy muddaosiga aylanadi, ikkinchi tur asarlarda esa, tarixiy faktlar, shaxslar asos qilib olinadi-yu, fantaziyaga, badiiy to'qimaga erk beriladi, tarixiy shaxslarning batafsil biografiyasi emas, balki shu faktlar bahonasida muaayan ijtimoiy-ahloqiy muammolarni ko'tarish, tarixiy faktlar orqali «gap aytish» birinchi o'ringa chiqadi.

«Ulug'bek xazinası» romani keyingi turga kiradi. «Ulug'bek xazinası» ning tasvir maromi, ko'pgina tarixiy asarlardan farqli o'laroq, xiyla tezkor, shiddatli. Asarda o'tkir dramatik lavhalar, ichki ruhiy kechinmalar, xarakterli va g'oyalarning oshkora to'qnashuvi asosiga qurilgan yordam epizodlar ko'p. Bir tomondan, romanda bir talay kuchli ruhiy tasvirlarni o'qiymiz. Ulug'bek iztirobli, Abdullatifning ota o'limidan keyingi vasvasa-yu ruhiy qiynoqlari, xususan, bog'dagi so'nggi kechadagi dahshatli holati keskinligi bilan berilgan. Ikkinchi tomondan, yozuvchi xarakterlararo to'qnashuvlar tasviriga ham katta e'tibor qaratadi.

Ulug'bekning shayx Nizomiddin bilan ilmiy musoxabasi, o'g'li Abdullatif bilan yuzma-yuz to'qnashuv, Ali Qushchi bilan mavlono Muhiddin orasidagi dahanaki janglar, zindondagi tortishuvlar, olimning Abdullatif bilan takror-takror to'qnashuvlari – bular shunchaki olishuvlar, tortishuvlar bo'lmay, bir-biriga zid xarakterlarning, ashaddiy raqiblarning turli g'oya, e'tiqodlarning to'qnashuvidir.

Roman kompozitsion jihatdan puxta Voqealar, xarakterlar izchil, bir-biri bilan mantiqan bog'langan.

«Ulug'bek xazinası» ba'zi taqrizchilar qayd etganidek, buyuk munajjim, sulton Ulug'bek «bosib o'tgan murakkab hayot yo'lini ifodalagan tarixiy-biografik» asar bo'lmay, balki ismi-jismiga muvofiq ijtimoiy-problematik romandir. Qorong'i feodalizm sharoitida ma'rifat va jaholatning shiddatli kurashi romanining g'oyaviy-badiiy konfliktini tashkil etadi.

Ma'lumki, Movarounnahrda XV asrda ilm-fan adabiyot va boshqa sohalarida muayyan jonlanish yuz beradi. Temuriylar avlodidan sulton Ulug'bek Samarqanddagi ma'rifatparvarlik ishlariga rahnomolik qiladi. Qariyb yarim asr davom etgan bu ilmparvarlik diqqatga sazovor muvaffaqiyatlar keltiradi. Ulug'bek va uning sadoqatli shogirdlari astranomiya, riyozat va boshqa fan sohalarida jahonshumul kashfiyotlar yaratadilar. Ulug'bek maktabining aniq fanlar sohasida, ayniqsa, koinot olami sirlariga doir buyuk kashfiyotlar asrlar bo'yi xalq ongiga kishan bo'lib kelgan, kelayotgan islom dini aqidalariga berilgan kuchli zarba edi.

Jaholat homiylari odatdagiday bu gal ham ilm daraxtiga qarshi bolta ko'tarib maydonga chiqadilar. Movarounnahrda Xo'ja Ahror singari ashaddiy reaksiyon shaxslar bu johil qasoskorlar tepasida turadi.

Ashaddiy zulmat hukm surgan bunday sharoitda ilm-fan sohasining ma'lum ijtimoiy tayanchsiz bu qadar taraqqiy etishi mumkin emas edi, albatta. Maqsud SHayxzodaning mashhur dramasida ta'kidlanganidek, Ulug'bek shohlikni ma'rifatga dastyor qilgan buyuk tarixiy shaxs edi. SHu sababli bu davrdagi ma'rifat va jaholat kurashi chuqur ijtimoiy-siyosiy zaminda yuz beradi. Jaholat tarafdorlari o'zining nobakor xatti-harakatlari bilan tanilgan shahzoda Abdullatifni Ulug'bekka qarshi tarix sahifasiga sudrab chiqadilar. Ulug'bekka siyosiy, ma'naviy, ilmiy, jismoniy mahv etishni ko'zda tutgan bu fitna aslida ma'rifatga qarshi qaratilgan oshkora jazo edi.

Romanda qahramonlar taqdiri ana shu ijtimoiy-g'oyaviy konflikt nuqtai nazaridan aks ettiriladi.

Ulug'bek murakkab tarixiy shaxsdir. U jahon fani tan olgan buyuk siymo, bu bilan birga yirik feodal davlat arbobi. Romanda, Ulug'bek hayoti va faoliyatining g'oyat qisqa, shu bilan birga, eng qaltis, keskin yuqori nuqtasi, buyuk shaxs umrining sarhisobi ko'rsatiladi. Ulug'bek mamlakatda ilm-fanning ravnaqini ta'minlashga intildi. Biroq u o'zining bu idealini xalq hayotida qaror toptirishga muvaffaq bo'lolmadi. Jaholat homiylari panohida o'g'li Ablullatif Samarqandda qo'shin tortib kelayotgan og'ir va keskin bir vaziyatda Ulug'bek qirq yillik faoliyati davomida fan va ma'rifat sohasida erishgan muvaffaqiyatlarining jaholat egalari tomonidan barbod qilinishi xavfidan qattiq dahshatga tushadi. Ikkinchidan, shunday olijanob, ezgu orzular sohibi bo'lgan kishining farzandlari bir-biriga, jumladan otaga nisbatan ham bo'riday yovuz munosabatda bo'ladilar. Uchinchidan, ota o'z farzandi bilan taxt talashishi isnodidan or qilib qilichini yerga qadaydi. To'rtinchidan, Ulug'bek rahnamoligida ot minib, qilich taqqan eng ishonchli kishilar qaltis vaziyatda unga xiyonat qiladilar. Bu hodisalarning hammasi ulug' olim- sulton Ulug'bekni qattiq ruhiy iskanjaga oladi. Nega shunday?! Nega odamlar bir-biriga shu qadar toshbag'ir va yovuz?! Nega ezgu

orzu va xayrli ish shu qadar qattiq to'siqlarga uchraydi?! Ulug'bekning quyidagi monologi uning dunyoqarashining haqqoniy ifodasidir:

«O, yulduzlar... YUlduzlar, ellik yil sizlarga oshufta bo'ldim, kechalarni bedor o'tkazib, har bir sitora, har bir yulduz yo'lini kuzatdim. SHuncha yil umrimni sarf etib, yulduzlar sirini, koinot sirini o'rgandimi, zamin siriga, insonlar hayotiga kelganda g'aflatda qoldim. Falakiyot sirini bilsam, zamin va hayot sirlarini ham bilurmen, deb o'ylagan edim, yo'q, yanglishgan ekanman! Insoniyat!... Insoniyat! Nainki insoniyat, hattokim, o'z pushti kamarimdan bo'lgan zurriyotlarning yuraklariga qo'l solib ko'ra olmadim. Maqsadlari ne, bilolmadim»¹.

YOzuvchi Ulug'bek ma'naviyati va ruhiy olamining ana shu chigal tugunida jam'ul-jam bo'lgan o'ziga xos ideali va fojiasini, bu ziddiyatli tuyg'u va tushunchalar quyuni ichra yashiringan ulkan insoniy qalbini asosan to'g'ri ochadi va uni ulug' olim, davlat arbobi va inson sifatida konkret gavdalantiradi. Qirq yil ilmiy va ijtimoiy hayot tajribasiga ega bo'lgan bu ulug' inson xarakteriga xos asosiy xususiyat, romanda tasvirlanishicha, salobat, bosiqlik, vazminlikdir. U o'z hayoti va mamlakat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan jiddiy o'zgarishlarni chuqur idrok etadi. Uning dil tug'yonini asosan botinan amal qiladi. Masalan, SHayx Nizomiddin Xomush, Abdullatif bilan uchrashuv sahnalarida Ulug'bekning ularga qarshi qaratilgan achchiq kinoyali so'zlarida asabiylik changining kuchayishi undagi mantiq kuchini ma'lum darajada zaiflashtiradi, binobarin, jaholatni qoralovchi aybnoma sifatida ta'sirini kamaytiradi. O'z haqligiga ishongan dono inson har qanday vaziyatda ham o'z muvozanatini saqlaydi, bosiq va xotirjam so'zlaydi. Ulug'bek ana shunday obrazdir.

Romanda Aliy Qushchi, Qalandar, Usta Temur Samarqandiy, Xurshidabonu, Bosqonbek, Muhiddin obrazlari timsolida dahshatli sharoitda ma'rifat uchun kurashning og'ir yo'li haqqoniy gavdalantirilgan. Ulug'bek shogirdlari Ali Qushchi va Muhiddinga ikki qanotim, deb ishonadi.

Ali Qushchi bu ishonchga to'la sazovor bo'lgan shogirddir. U ustoz xazinasini emirishdan saqlab qolish uchun ko'rgan tadbirlari bilan

¹ O.YOqubov «Ulug'bek xazinasini».

tommoshabinning hurmat va tuhabbitini qozonadi. Ali Qushchining bu hayotiy prinsipi ustoz hamda onasi bilan suhbatda, Abdullatif bilan to'qnashuv sahnalarida oydinlashadi. Ayniqsa, zindondagi qat'iy matonati, Abdullatif huzurida o'zini mardona tutishi, ustozni erishgan madaniy xazinalarni oyoq osti qilgan johil shohga xizmat qilishdan bosh tortishi, ilmiy-insoniy e'tiqodga sadoqatning timsoli sifatida ta'sirlidir.

Muhiddin obrazida bunday hissiyotning nisbatan ta'sirliroq ifodalashiga sabab uning chigal ruhiy kechinmalar girdobiga qolganligidir. Romanda ta'kidlashicha, Muhiddin taniqli olim. Katta tajribaga ega Ulug'bek to umrining oxirigacha shogirdi Muhiddinda e'tiqodga soya soladigan biror qing'ir xatti-harakat sezmaganligi tufayli Ali Qushchiga xazina taqdiri uchun kurashda uni o'ziga hamroh qilib olishni maslahat beradi.

Haqiqiy olimlik uchun tadqiqot talantining yolg'iz o'zigina kifoya qilmaydi. Olimlik jasorat, fidoiylilik, ilmiy va insoniy e'tiqodga qat'iy sadoqat demakdir. Bu haqiqatni biz Ali Qushchi siymosida chuqur his etgan edik. Bu prinsipga xiyol xiyonat olimni ma'naviy, hatto jismoniy halokatga mahkum etadi. Muhiddin obrazining g'oyaviy muddaosi bu fikrning badiiy tasdig'idir. Mashhur amerika yozuvchisi. F. Kuperning «Qo'rquv aqllilarni tentak, polvonlarni zaif qiladi», degan so'zlari Muhiddin obrazining hayotiy va mantiqiy negizini tushunishga yordam beradi. Irodasizlik, qo'rqqoqlik vijdonli olim Muhiddinni mo'rt qilib qo'ygan illatlardir. Qamoqda Ali Qushchining qattiq dashnomlariga Muhiddin «Ne qilay men bir nogiron bandai ojiz bo'lsam...» deb o'zining qo'rqqoqligini samimiy tan oladi.

SHahzoda Abdulazizning yaramas qilmishi uchun Ulug'bek saltanatidan norozi bo'lgan otasi Salohiddin zargar o'g'li Muhiddindagi bu ruhiy zaiflikni yanada chuqurlashtiradi. Uni Ulug'bek xazinasini uchun kurashdan chetga tortibgina qolmay jaholatga bo'ysunushga undaydi. Muhiddin irodasizligi tufayli sodir bo'layotgan keskin o'zgarishlar, oilaviy muhit ta'siriga bardosh berolmay, qattiq sarosimada qoladi. Ulug'bekning qatl etilishi, o'lkaga jaholatning bulutday yopirilib kelishi, bu keskin vaziyatdan foydalangan otaning ta'siri Muhiddinni o'z

hayoti va oila tinchligini ko'zlagan xudbinlik botqog'iga cho'ktiradi. Bedin kitoblar uchun olloning g'azabiga buchor bo'ldik, degan tushunchaga ko'r-ko'rona ishonadi. Ota topshirig'i bilan Abdullatifga qo'l qovushtirib qulluq qiladi, shohning buyrug'i bilan Ali Qushchidan Ulug'bek xazinasini topib berib, bu balolardan tezroq xalos qilishni iltimos qiladi.

Muhiddining bu qilmishi obraz ma'naviyatida aks sado beradi, albatta. Bularning hammasi uning qalbidagi Ulug'bekka muhabbat, olimlik mas'uliyati uchqunini tamoila o'chira olmaydi. Olimlikni Ulug'bekdan, odamiylikni otadan o'rgangan Muhiddin ikki o't orasida vijdonan qiynaladi. Uning bu holati qizi Xurshida bonuning xonadondan g'oyib bo'lishi munosabati bilan Abdullatif tomonidan bo'ladigan tahdidlardan qo'rquv natijasigina emas, shu bilan birga, Ulug'bekka muhabbatda, umuman, ilmiy-insoniy e'tiqodga sadoqatda izchil bo'lolmaganlik tufayli vijdon azobining xuruj qilishi hamdir. Telva Muhiddining kitob gulxani oldida paydo bo'lishi voqeasi Abdullatifning padarkushiligini fosh etish bilan birga, umuman, jaholat ustidan chiqarilgan aybnoma sifatida ham o'quvchida kuchli taassurot qoldiradi.

Qalandar Qarnoqiy, Xurshidabonu va boshqalar istibdodga qarshi kurashda erkinlik uchqunlari bo'lib gavdalanadilar. Murakkab hayot jarayonini o'z boshidan kechirgan Qarnoqiy ustoz Ulug'bek ruhiga sadoqat va chinakam fidoiylik ko'rsatadi. Uning xazina taqdiri uchun kurashdagi jasoratida jozibali romantik ko'tarinkilik mujassam.

Ma'rifatni xalq yo'lini yorituvchi mash'alni barbod etishga qaratilgan illatlar tig'ini ma'lum darajada o'tmaslashtirishda ijobiy kuchlarning xizmati katta. Biroq ijtimoiy tuzum jaholatining tayanchi bo'lganligi tufayli ma'rifatparvarlar yoqqan mash'alning nuri afsuski, uzoqni yorita olmaydi. Istibdod ustunlik qiladi.

Alisher Navoiy Abdullatifni «Savdoiy mijoz vasvosi ta'b va devonasor kishi erdi, «Mundin o'zga dag'i garb badfe'lliklari bor erdi,» deb xarakterlaydi². Abdullatif obrozining g'oyaviy mohiyati ulug' shoir so'zlarining yaqqol ifodasidir. Abdullatif qiyofasida istebdodning insonparvarlikka zid mohiyatini

² Alisher Navoiy. Asarlar. 12 tom. G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966 y, 172-bet.

yaqqol ko'ramiz. Abdullatif bu yovuz kirdikorlarini yovuz kuchlar qo'li ostida amalga oshiradi. Aniqrog'i, din peshvolarining qo'g'irchog'iga aylanadi. U otasi yoqqan barcha chiroqlarni shafqatsizlik bilan o'chirishga ahd qilgan. Mamlakatni jaholatning zulmat pardasiga o'rashga intilgan, bu yaramas xatti-harakatlarining hayotga zid kelib qolganidan vas-vasaga tushgan. SHohning murakkab kechirmalarini haqqoniy ifodalaydi. Abdullatif taxtga o'tirgandan so'ng Ulug'bek bilan birinchi marta uchrashganda ulug' inosn salobati oldida bir muddat bahtiyor dovdirab qoladi. So'ng o'zini o'nglab olib, taxtni sizning iltifotingiz bilan, o'zim kurashib qo'lga kiritdim, deb mag'rur tusga kiradi. O'linga mahkum etilgan, kishanlangan ukasi Abdulazizning uni padarkushlikda ayblashidan larzaga keladi. Biroq saltanat tig'i bilan uning ham ovozi o'chiradi. Nihoyat olomon to'plangan gulxani maydonida telba Muhiddinning harorati shohni ruhan tanazzalga olib keladi. Uni o'z qilmishlarining intiqomi hamisha hamma erda ta'qib etib boradi. YOzuvchining mahorati shundaki, Bu ruhiy kechinmalarni vijdon azobi sifatida emas, balki taxtidan judo bo'lib qolish vasvasasi, o'limdan qo'rqish vahimasi sifatida haqqoniy talqin etadi.

Odil YOqubov, yuqorida ta'kidlaganimizdek, romanda muhim muammoni asos qilib olgan. Feodalizm hukmron bo'lgan o'rta asr sharoitida ma'rifat va jaholatning kurashi g'oyat katta ijtimoiy, insonning fojialarini qamrab olishi o'z-o'zidan ma'lum.

Romandagi ayni muammoning dolzarb va murakkabligi yana shundaki, yozuvchi maskur muammoni oddiy maishiy – hayotiy yo'nalishda emas, katta ijtimoiy-siyosiy ko'lamda talqin va tadqiqi etishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

II bob. «Ulug'bek xazinası» romanini o'qitishning samarali usullaridan foydalanib o'rganish.

2.1. IX sinfda Odil YOqubovning «Ulug'bek xazinası» romanini o'rganish orqali o'quvchilarning fikrlash salohiyatlarini o'stirish usullari.

Odil YOqubov hayoti va ijodi namunasi, aniqrog'i, avtobiografik xarakterdagi «Muzqaymoq» hikoyasi bilan o'quvchilar 6- sinfda tanishgan. 9-sinfda yozuvchiga katta shuhrat keltirgan «Ulug'bek xazinası» romanini o'qish-o'rganish nazarda tutilgan.

O'qituvchi «Ulug'bek xazinası» dan olingan parcha bo'yicha darslarga kirishdan oldin o'quvchilarga Odil YOqubovning hayoti, ijodiy yo'li, adibning zamonaviy o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida muxtasar tarzda ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlarni oliy yurtlari uchun chop etilgan «20 asr o'zbek adabiyoti tarixi» (1999) darsligidan, shuningdek, 11-sinf adabiyot darsligida keltirilgan yozuvchining «Hayot saboqlari va ijod mashaqqatlari» maqolasidan olishi mumkin.

O'qituvchi ayni paytda mazkur romanning dunyoga kelish tarixidan ham bahobar bo'lishi lozim. «Ulug'bek xazinası» romani jahon ilmiy jamoatchiligi buyuk o'zbek olimi Abu Rayhon Beruniyning ming yillik to'yini nishonlashga hozirlik ko'rayotgan bir paytda – 20 asrning 70-yillari o'rtalarida kitobxonlar qo'liga etib bordi. Ma'lum bo'lishicha, Beruniy 150 ga yaqin asarlar yaratgan, shulardan atiga beshdan bir qismi bizgacha etib kelgan. Bu hol kishini ham afsuslantiradi, ham hayratga soladi. Axir ma'rifat durdonalari to'liq saqlanib qolganda insoniyatning ilm xazinası yana ham mukammalroq bo'lmasmidi!

Biz Biz madaniy boyliklar ijodkorlari haqida ko'p gapiramizu, shu boyliklarni asrab – avaylab avlodlardan avlodlarga, asrlardan-asrlarga olib o'tgan kishilar haqida ham gapiramiz. Insoniyat dahosining buyuk qomusi sanalmish bitiklarni asrab qolishdan o'zlarini «faqiri haqir» sanagan kamtarin xatotlarning ulkan xizmatini, kitob ishqida yongan, boshlariga qilich kelganda ham kitob asrash, uni targ'ib va tashviq qilish ahdidan qaytmagan fidoyilarning jasoratini

unitishga haqqimiz yo'q. Faqat Beruniy merosi emas, qadida o'tgan barcha buyuk allomalar yaratgan asarlarning taqdiri xuddi o'sha «faqiri haqir»larning, kitob shaydolari va fidoyi shogirdlarning xizmat jasoratlariga bog'liqdir. Sofokl, Ibn Sino, Firdavsiy, Navoiy, SHekspirlar ana shularning xizmat va jasorati tufayli «tirik» qolgan.

«Ulug'bek xazinasini» romanini o'qiganda shu haqiqat yodga tushadi, shu muqaddas haqiqat tuyg'usi yodga tushadi, shu muqaddas haqiqat tuyg'usi butun borlig'ingizni chulg'ab oladi. Demak, bu roman katta umuminsoniy mavzuga bag'ishlangan, unda ko'pchilikni hayajonga solgan masala ko'tarilgan.

«Roman aniq tarixiy haqiqat asosida yozilgan. Buyuk alloma Ulug'bek xazinasini – u yiqqan, yaratgan jamiki kitoblarning, tillarda doston bo'lib qolgan mashhur kutubxonaning taqdiri muammosi ko'pdan beri ilmiy jamoatchilikni qiziqtirib keladi. 20 asrning 60-yillari «Pravda vastoka» gazetasi shu xususda baxs ochgan. Bu baxs ulkan tadqiqotchi Irakli Andronikov e'tiborini o'ziga tortgan edi. Bu baxsda ilgari surilgan, xususan, Andronikov maqolasida o'rta qo'yilgan fikr va mulohazalar ko'plar qatori yozuvchi O. YOqubovda ham katta qiziqish uyg'otdi. SHu paytga qadar «zamonaviy yozuvchi» bo'lib tanilgan, doimo zamonaviy mavzuda qalam tebratib adibimiz endi xayolan olis tarix sahifalarini «sayr etishga» tushdi, ko'pgina tarixiy hujjatlarni, Ulug'bek hayoti va davriga oid manbalarni o'rganib chiqdi, Ulug'bek to'plagan, yaratgan ulkan ma'naviy xazinaning taqdiriga oid faktlarni qidirdi.

YOzuvchi, avvalo, Ulug'bek kutubxonasining qismatidan bahs etuvchi bir sarguzasht qissa yaratmoqchi bo'lgan edi. Bunday qissa bitildi ham, ammo muallifning undan ko'ngli to'lmadi, ijodiy ish davom etdi. Hayolda charx urgan fikrlar, gavdalangan obrazlar kengayib, to'lishib, jiddiy yirik asar shakliga kira boshladi, nihoyat, «Ulug'bek xazinasini» nomi bilan atalgan roman dunyoga keldi».³

³ N. Karimov, V. Nazarov, U. Normatov. Adabiyot. 9-sinf. O'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. T. «Ma'naviyat» 2001 y. 112-113 b

Ma'lumki, Ulug'bek haqida bir qancha badiiy asarlar bor, ular orasida M. SHayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» tragedichsi alohida ajralib turadi. Ulug'bekdan so'z ochgan har bir qalamkash bu ajoyib tragediyani chetlab o'tishi mumkin emas. Odil YOqubov ham M. SHayxzodaning tajribalaridan bahramand bo'lgan. Roman bilan tragediya orasida talay umumiyliklar mavjud. CHunonchi, roman ham xuddi tragediya kabi Ulug'bek hayotining so'nggi davrini hikoya qilishdan boshlanadi, tragediyadagi ko'pgina tarixiy faktlar romanda ham tilga olinadi, bir qancha tarixiy shaxslar bu erda ham ishtirok etadilar. SHu bilan barobar «Ulug'bek xazinasini» faktlar, tarixiy shaxslarning badiiy talqini, o'zining uslubiy, g'oyaviy-badiiy yo'nalishi jihatidan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasidan kesikni farq qiladi.

SHu o'rinda adabiyot muallimi 7-sinf darsligidan o'rin olgan M. SHayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» tragediyasini eslatib o'tsa, foydadan xoli bo'lmaydi; imkon qadar «Ulug'bek xazinasini» romani bilan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi orasidagi o'xshash va farqli jihatlarga o'quvchilar e'tibori tortilsa, bunday qiyosiy tahlil Ulug'bekka bag'ishlangan ikki yuksak badiiy asar haqidagi o'quvchi tushuncha-tasavvurini mukammallashtirishga xizmat etadi.

«Mirzo Ulug'bek» tragediyasi markazida shoh va olim Ulug'bek taqdiri turadi. U bevosita o'z davri ilg'or g'oyalarining tashuvchisi sifatida ko'rinadi. «Ulug'bek xazinasini» da esa Ulug'bekning ma'naviy xazinasini – u yaratgan ilm-fanning, u yiqqan syujeti mo'qimasini tashkil etadi.

Kitob-ma'naviy xazina sifatida butun asarni tutib turadi. Romandagi barcha voqealar, kura shva olishuvlar shu muqaddas ma'naviy xazinaga munosabatda ochiladi, davr ziddiyatlari, tarixiy voqealar ham shu fon asosida ifoda etiladi. Qisqasi asarda ma'naviy-ahloqiy muammolar barinchi planga chiqadi. Asarning zamonaviy qimmatini, bugungi kitobxonni hayajonga solishi siri shundaki, muallif Ulug'bek xazinasining taqdiri bahonasida hozirgi paytda butun jamoatchilikni qiziqtirayotgan ma'naviy-ahloqiy muammolarni ko'targan, ustoz va shogird, burchi va vijdon, ma'naviy e'tiqod masalalarini juda keskin qilib qo'ygan. Adib yuksak e'tiqod egalarini ulug'laydi, e'tiqoddan chikingan kimsalar dramasi va fojiasini butun shiddati bilan ko'rsatadi.

Tarixiy janr ustasi Oybek: «Men, yozuvchi qaysi bir tarixiy murojaat qilmasin, mabodo u davrning g'ayri yoki hattoki g'alati ko'ringan barcha xususiyatlari orasidan o'ziga tanish bo'lgan his-tuyg'ular, fikrlar izlasa, mutlaqo xato qilmaydi, deb o'ylayman...»degan edi.

Odil YOqubov ham shunday yo'ldan borgan. Ulug'bek davrining bizdan uzoqlashtiradigan xususiyatlari orasida o'ziga tanish bo'lgan his-tuyg'ular, fikrlar qidirgan: asarning zamonaviy qimmati, bugungi kun bilan bog'laydigan tomonlari xususan Ali Qushchi, Abdullatif, Mavlono Muhiddin obrazlari tashiydagan ma'naviy-ahloqiy muammolar, his-tuyhular tahlili va talqinida yaqqol namoyon bo'ladi.

Demak, «Mirzo Ulug'bek»da ham, «Ulug'bek xazinasini» da ham zamonaviy ruh kuchli, ammo zamonaviylikning namoyon bo'lishi, davr ruhining ifodasi jihatidan ular bir-birini aslo takrorlamaydi.

Ulug'bek obraziga yondashuv ham ikki asarda ikki xil. Tragediya muallifi Ulug'bek hayotining oxirgi davrini tasvir etsa-da, uni mumkin qadar xilma-xil holatda ko'rsatishga intiladi. Ulug'bek goh tinch-ijodiy ishlar ustida, goh tantanali marosimlar boshida, goh shaxsiy intim kechinmalar og'ushida, goh hazil keskin dramatik to'qnashuvlarda, goh g'olib, goh mag'lub holatlarda goh g'olib, goh mag'lub holatlarda ko'rinadi, uning ham olimlik muhiti, ham shohlik jasorati birdek ochiladi, muallif Ulug'bekning kuchli tomonlarini – undagi tadbirkorlik, mutafakkirlik, jasoratni xiyla bo'rttirib, qabartirib beradi, umuman, «Mirzo Ulug'bek»da, etakchi qahramon tasvirida shekspirona ruh ustun.

«Ulug'bek xazinasini» da esa yozuvchi Ulug'bekning eng keskin dramatik damlardagi holatigina qiziqtiradi. Bir qarashda qahramonni xilma-xil tomondan ko'rsatish uchun tragediyaga ko'ra romanda tanlangan vaziyatda imkoniyat torroqdek ko'rinadi. SHunisi muhimki, roman muallifi qahramonning bir xil keskin dramatik daqiqalardagi hayotiy tanlab olsa-da, qahramon xarakterining xilma-xil qirralarini, undagi kuchli va ojiz jihatlarni echishga muvaffaq bo'ladi. M. SHayxzodadan farq qilaroq, O. YOqubov xarakter tasivrida ko'tarinki

romantik jilolardan qochadi, izchil realistik yo'ldan boradi. Ulug'bekdagi oddiy, insoniy, tabiiy xislatlar tahliliga alohida e'tibor beradi.

«Ulug'bek xazinasini» dagi Ulug'bek – fojiaiy shaxs, ammo uning fojiasi zaminida qandaydir, hayotbaxsh ruh bor, qora kuchlar Ulug'bekni taxtidan judo qiladilar, yurtidan badarg'a etadilar, qonini to'kadilar, ammo uning ma'naviy xazinasini yo'qotishga kelganda qo'llari kaltalik qilib qoladi. Ulug'bek shu ma'naviy xazinasini, munosib shogirdlari bilan tirik qoladi. Asarning syujeti oqimidan shunday ma'no kelib chiqadi. «Mirzo Ulug'bek»da ham fojiaiy optimistik tomonini qayd etish bor. Biroq u erda o'zgacha, muallif bunday g'oyani Ulug'bekning o'lim oldidagi do'stlar qurshovida aytgan quyidagi so'zlari orqali oshkora ifoda etadi:

«Men davramda do'stlarimni ko'raman yana,
Demak, bizga o'lim yo'qdir men bo'lmasam-da»⁴

«Mirzo Ulug'bek»da Ali Qushchi shunchaki mahram, shogird sifatida ko'rinadi, voqealar rivojida deyarli muhimroq rol o'ynamaydi. «Ulug'bek xazinasini» da esa etakchi personajlardan biriga aylanadi. Abdullatif tragediyada g'alamis bir shaxs sifatida ko'rinadi. «Ulug'bek xazinasini» da esa u etakchi figuralardan biriga aylanadi. Ali Qushchi, Abdullatif obrazlarining xarakteri, ayniqsa, Ulug'bek vafotidan keyingi voqealar rivojida chuqur ochiladi.

Ulug'bek taxtdan tushadi, hokimiyat tepasiga johil, mutanisib qalloblar qo'lida qo'g'irchoq bo'lmish Abdullatif keladi, kuchlarning «davri davroni», ma'rifat ahlining esa qora kunlari boshlanadi. Romaning ikkinchi qismi ana shu mudhish kunlar tasviri va tahliliga bag'ishlangan. YOzuvchining mahorati, ijodiy individualligi, xususan, shu qismda yaxshi namoyon bo'lgan.

Bir tomondan Abdullatif boshliq qora guruhlar – ularning ma'naviy rahnomosi shayx Nizomiddin Xomush, xoja Salohiddin Zargar, amir Jondor, ayg'oqchi Qashqir... Ikkinchi tomonda, Ali Qushchi boshliq ma'rifat fidoyilari... Ulug'bek xazinasini o'sha dahshatli kunlarda qora guruhlar nazaridan, tahdid shiddatli, xatarli kurashga keng xalq ommasi vakillari-madrasa talabasi-yosh

⁴ M. SHayxzoda

shogird Miram CHalabiydan tortib xalq orasidan chiqqan shoir Qarnoqiygacha, oddiy temirchi usta Temur Samarqandiydan tortib ma'rifatli ayol Xurshidabonugacha barcha ishtirok etadi. Bu bilan yozuvchi muhim g'oyani Ulug'bek ma'naviy xazinasi xalq mulki ekanligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, muallif Ulug'bek va xalq munosabatidagi murakkabliklarni – Ulug'bekning xalq kuchiga etarli baho bera bilmasligini, oddiy mehnat ahlining esa har doim ham Ulug'bekka ishonavermasligini imo-ishoralar orqali ta'kidlab boradi.

Ma'lumki, bu murakkab hodisa «Mirzo Ulug'bek»da Bobo Kayfiy, Otamurod, Piri Zindoniy kabi personajlar vositasida o'ziga xos tarzda aniq, ta'sirchan ifoda etilgan.

«Mirzo Ulug'bek»da asosan ilg'or kuchlarning tragediyasi ko'rsatiladi, ularning ruhiy dramasi yozuvchining diqqat markazida turadi. Qora kuchlar yozuv markazida turadi. Qora kuchlar yovuzlikning timsoli sifatidagina ko'rinadilar. Said Obidni mustasno qilganda ular qalbidagi ziddiyatlar muallifni u qadar qiziqitirmaydi. «Ulug'bek xazinasi» muallif esa ilg'or kuchlar bilan barobar qora kuchlarning, adashgan kimsalarning ruhiy dramasini, fojiasini ochadi. Bu jihatdan «Ulug'bek xazinasi»o'zbek adabiyotida yangilik bo'ldi. Adabiy tanqidchilik yozuvchining Abdullatif, Mavlono Muhiddin xarakteridagi Ziddiyatlar, fojeiy onlarni tasvirlashdagi mahoratini alohida ta'kidlab o'tdi. Darhaqiqat, ikki o't orasida qolib telba holga tushgan mavlono Muhiddinning fojiali qismati asarda zo'r ta'sirchanlik kasb etgan. Abdullatifning ota o'limidan keyingi ruhiy qiynoqlari, talvasa-u vahimalar girdobidagi ayanchli qiyofasi, xususan, bog'da so'nggi kechadagi dahshatli holati butun keskinligi bilan ko'rsatilgan.

Romandan olingan parcha tahlil paytida muallim ayni shu bobning tanqidchilikdagi quyidagi talqinidan foydalanishi mumkin. YOzuvchi bu erda nasriy asarlarda ko'p uchraydigan kontrast – qarama-qarshi qo'yish usulidan mohirona foydalanadi. Dastlab uzoq davom etgan dramatik keskinlikka ozgina dam beradi, SHahzodaning nisbiy osoyishta, quvonchli damlarini ifoda etadi.

Vasvasa bosib, uyqu ko'rmay iztirobda yurgan shahzoda ovunish uchun «Bog'i Maydon»da kelgan. YOzuvchi dastlab bog'ning dilrabo manzarasini

chizadi. «Peshinda quygan jaladan keyin bog' go'yo cho'milgan kelinchakday ochilib ketdi. YOmg'irda yuvilgan daraxtlar, xiyobonlarning ikki yonida saf tortgan sarvlar allaqanday muloyimlashib, yashnab, bo'lakcha bir go'zallik kasb etdi. Archalar orasida tovlangan oq, sariq, qizil gul kosachalarini lim-lim to'ldirgan tiniq tomchilar go'yo nafis piyolachalarga quyilgan mayday gul-gul yondi, borliqni bulbul xonishi tutdi. Go'yo har bir shox, har bir yaproq tagiga yashirinib olgan bulbullar tobora avjiga chiqar, boshqa hamma qushlar ovozi bosib, yayrab-yayrab, to'lib-toshib sayrashadi»⁵

Ana shu dilrabo, g'azal tabiat qo'ynida tabiatning bu nobakor farzandi barcha tashvish va g'am-anduhlardan soqit bo'lganda engil tortadi. U bu gulgun makonda o'tgan beg'ubor bolalik yillarini eslab, ko'ziga yosh oladi. O'sha kezlari yuragi yangi jadallar dabdabayu as'asalar, shon-shavkati toju taxt ishqida yonar, lekin bu toju taxt unga shon-shavkatu ulkan baxt emas, g'urbat va iztirob keltirar, degan xayol etti uxlab tushiga kirmagan edi... Boshkiydi, o'sha beg'ubor o'spirinlik yillari bir daqiqagina qaytib kelsa... SHu tariqa shahzoda dilidagi boyagi shodlik qandaydir mayuslik bilan almashinadi, lekin bu holat har kungi mudhish tuyg'ularga o'xshamagan, allaqanday pokiza hislar bilan chulg'angan. SHu erning o'zida muallif bu daqiqalar nihoyatda omonat ekanligiga ishora qiladi: «SHahzoda majruh qalbini iliq nurga yo'g'rilgan bu esdaliklar olami bilan vidolashgisi kelmay bir-bir bosib «CHil ustun»ga qaytdi». Go'yo shahzoda sal tezroq yursa ham bu omonat holat barbod bo'lib ketayotganday tuyuladi.

Biroq uning ozgina oromi birdan avvalgidan yuz chandon mudhishroq dahshat bilan almashinadi. Tushida u yana toj-taxt tevaragida ketayotgan fitna, fisqu fasodlarga ro'baro keladi, xiyonatkor amir Jondor qo'lidagi barkashda o'zining qonga bo'yalgan, tirjayib yotgan boshini ko'radi. Muallif yozadi: «SHahzoda dod solib qichqirgancha... uyg'onib ketdi. U tushidagini emas, o'ngida ham dod solib baqirib yubordi chamasi, chang va setor ovozi kelayotgan yondosh xonadan balxlik saroybon bilan bir mahram yugurib chiqdi. Ular chiqqanda, shahzoda o'ng qo'lida yalang'och qilich, chap qo'li bilan ayyonninig ustunini

⁵ O. YOqubov. «Ulug'bek xazinası» roman. Toshkent.

quchoqlaganicha sarmast odamday chayqalib turar, uning bu turishi, olazarak ko'zlari, butun vajohati shunday mudhish ediki, yugurib chiqqan saroybon bilan mahram yaqin kela olmay bo'sag'ada to'xtab qolishdi».⁶

SHahzodja bir oz o'ziga keladi, ko'rganlari tush ekanini anglab, ko'nglida taskin beradi, lekin qonga bo'yalgan bosh ko'z oldidan ketmay uni vahimayu sarosimaga soladi. SHunda uning olazarak ko'zlari to'satdan tokchadagi kitoblarga tushadi. Asarda o'qiymiz: «SHahzoda nigohi oldidagi sovuq manzarani quvish umidida ko'k charm jildiga zarhol bezak solingan qalin kitobni oldi. Nizomiy Ganjaviy!...»

SHahzoda yoshligidan, madrasada ta'lim olib yurgan chog'larida Nizamiyning musiqaday tiniq she'rlarini, puch hikmat rivoyatlari va dostonlari ko'p mutolaa qilgan edi. SHu sababdanmi, shahzodaning dilida umidga o'xshash qandaydir bir narsa «milt» etdi. Go'yo xayolini chulg'ab olgan mudhish jumboqqa Nizomiy Ganjaviydan javob topadiganday shosha-pisha kitobni ochib, birinchi misralarga ko'z yugurtirdi, yugurtirdi-yu, xuddi boshiga og'iz gurzi tushganday chayqalib ketdi. Ko'z oldi qorong'ilashib, ko'k charm jildlik oo'ig' kitob, xuddi tushida ko'rgan oltin barkashday qo'lidan sirpanib tushib, yirtiq varaqlari gilamga sochilib ketdi...

YOrab! Hozir kitobni ochganda dafatan ko'zi tushgan ilk misralar... tushida ko'rgan qonli kalladan ham dahshatli edi.

SHahzoda yuragini sangallagancha ko'zini yumdi, lekin zarhal harflar bilan bitilgan sirli misralar xuddi boyagi qonli kalladay ko'z oldidan ketmay, olovday lovillab turar edi. SHahzoda dilida dahshat solgan bu ikki baytni oxirigacha o'qidimi, yo'qmi, o'zi ham bilmas edi. Lekin undagi «Padarkush, toji taxt, olti oy ...» degan so'zlar xuddi qidirilgan temir bilan o'yib yozilganday miyasini jaz-jaz kuydirib nigohi oldida yal-yal yonib turar edi: «Padarkush taxtga o'tirganida necha oy bo'ldi? ... SHa'bon oyi edi. Bu ham chabburul avval ... olti oy ...

⁶ O.YOqubov. «Ulug'bek xazinasi» roman. Toshkent.

bo'lmish!...» SHahzoda turgan joyida gilamga tiz cho'kib, sajdaga bosh qo'yarkan, ko'ksidan achchiq faryod aralash bir nido otilib chiqdi:

«Osiy bandangga o'zing shafqat qilgaysen, e parvardigori olam! Va lekin yozug'im nedur?»

SHahzoda yor o'pganicha ko'kka tavallo qilib, rahm-shafqat tilar, yum-yum yig'lab, telbalanib allanimalarni so'zlar edi...»⁷

Matn tahlil qilinayotganda muallim tasvirdagi ana shu fazilatlarni o'quvchilarga etkazishi darkor. Bunda darslikdagi «Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili» degan nazariy ma'lumotlarni berishda erishish mumkin.

2.2. Akademik liseylarda «Ulug'bek xazinasini» romanini o'rganishda innovation usullarni qo'llash

⁷ O. Yo'ldoshev, V. Qodirov, Y. Yo'ldoshbekov. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik majmua. T. 2006 y. 281-bet.

Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari adabiyot ta'limida epik asarlarni o'rganishning umumta'lim maktablari ta'limidan maqsad va vazifalariga ko'ra farqli jihatlari mavjud.

Uzluksiz ta'limning mazkur bo'g'inida badiiy asarning o'ziga xos syujet va kompozitsiyasini, tasvir usulini, asar qahramonlarini o'rganish orqali muallif nuqtai nazarini mushohada qilish, epik asarning badiiy tafakkur tarzini tahlil etish va asarga estetik baho berish me'yorlarini o'quvchilarning o'zlashtirib olishlariga erishish asosiy ta'limiy maqsadni tashkil etadi. YOZuvchilarning turli janrlarda yaratilgan epik asarlarini o'rganish jarayonida o'quvchilar adabiy asarlar muayyan janr talabi asosida yaratilishini o'ziga xos kompozitsion qurilishiga, badiiy tasvir usuliga, bayon tarziga, hayotiy hodisalarni kamrab olish xususiyatiga ega ekanligini tushunib oladilar. Ular, shuningdek, muayyan bir janrda ijod qilgan yozuvchilar asarlarining o'ziga xos uslubi, tafakkur tarzi, mavzusi, hayotiy materiali, muammolari, syujeti, qahramonlari, badiiy tili kabi qator unsurlarga ko'ra bir-biridan farq qilishini anglab etadilar. Ayni paytda ular har qanday badiiy asar markazida inson timsoli turishini, nasriy asarlarni o'rganishda ularga ham boshqa adabiy turga mansub asarlar kabi badiiyat talablari asosida yondoshish lozimligini tushunib oladilar. Hayotiy hodisalar va badiiy timsollarning ta'sirchanligi, ijodkorning badiiy bo'yoqlardan foydalanishdagi san'atkorligi badiiy asarga estetik baho berishda muhim ahamiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qiladilar. epik asarlarni o'rganish va tahlil qilish vositasida o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlari takomillashib boradi, ular asardan badiiy zavq olishga, hayratlanishga o'rganadilar. eng muhimi, o'quvchining estetik didi shakllanib boradi: go'zallik yo dag'allik, noziklik yo qo'pollik tushunchalariga nisbatan o'quvchi munosabati tarkib toptiriladi. Zero, har qanday ta'lim-tarbiya yoshlarning hayotga, odamlarga, el-yurtga, ezgu maqsad va tilaklarga sog'lom munosabatini shakllantirishga yo'naltirilsagina samarali yakunlanadi.

Har qanday adabiy asar tahlili qahramonlar timsolini o'rganish orqali amalga oshiriladi. epik adabiy turga mansub hikoya, qissa, roman, epopeya singari janrlarda yaratilgan asarlarning syujeti, kompozitsiya unsurlari markaziy

qahramonlar timsolini yoritishga yo'naltirilgan holda shaklan yaxlit va uzviy birlikni tashkil etgan bo'ladi. Bosh qahramonlar timsollari orqali o'quvchilar yozuvchining hayotiy muammolarga, inson shaxsiga, ziddiyatli hodisalarga munosabatini anglab boradi. Asarning barcha shakliy unsurlari bilan uning mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi vositalar epik tafakkur miqyosini yuzaga keltiradi. Inson va uni qurshab turgan odamdagi chigal munosabatlar, hayotiy ziddiyatlarni o'quvchi kuzatib, bu hodisalarning jonli guvohiga aylanadi, har bir masalaga o'z munosabatini bildirish imkoniga ega bo'ladi. Boshqa adabiy tur va janrlarda yaratilgan asarlardan farqli ravishda epik asarlardagi qahramon timsoli amaliy ish olib borish uchun o'quvchiga katta imkoniyat beradi.

epik asardagi qahramon timsoli ustida ish olib borilganda o'qituvchi ikki muhim jihatga e'tibor berishi zarur.

1. Asardagi qahramonlar timsoli insonning tipik timsolini namoyon etadi.
2. Asar qahramoni yozuvchining ijodiy fantaziyasi, san'atkorligi natijasida yaratilgan badiiy timsoldir.

Demak, o'quvchi ongida ana shu ikki tasavvur va tushunchani timsollar tahlili davomida uyg'unlashtirishga erishish lozim. SHundagina o'quvchi badiiy asarlarni o'rganish ma'naviy ehtiyojga aylanishi zarurligini anglab etadi. «Nima uchun hamisha ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasida kurash kechadi? Nima uchun Inson muammosi hamisha adabiyot va san'atning bosh masalasi bo'lib kelgan? Adabiyot *insonshunoslikdir*, deyilishining boisi nimada?» kabi savollarga o'quvchilar asar markazidagi timsollarni o'rganish orqali javob topishlari mumkin. Ayni paytda, timollar ustida amaliy ish olib borish davomida o'quvchining har bir timsolga nisbatan munosabati, uni baholovchi ma'naviy me'yorlari, shaxsiy xulosasi yuzaga keladi. U o'zining mustaqil qarashlarini dalillar asosida bayon etishga o'rganadi.

Epik asarlarni o'rganish quyidagi yo'nalishda tashkil etiladi:

1. Asar matni ustida ishlash (asardagi nutq qatlamlarini o'rganish, portret, peyzaj, joy va badiiy detallar tasviriga e'tiborni qaratib, yorqin manazaralar tasvirini ifodali o'qish va sharhlash kabilar).

2. Asarning badiiy til xususiyatlariga e'tibor qaratib, yozuvchining uslubi va mahoratini o'rganish.

3. Asar syujeti, kompozitsiyasi, timsollarini uzviylikda o'rganish.

ehtirosli g'oya ruhi singdirilgan badiiy tasvir obrazli ifodalar vositasida o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi, qahramonning har bir hatti-harakati, har bir so'zi, holati orqali anglashiladigan mazmunni chuqur tushunishga yo'llaydi. Holatlar, kechinmalar, harakatlarning haqqoniy tasviri kitobxonda hamdardlik tuyg'ularini hosil qiladi yoki tabiiy ravishda g'azab-nafrat hissini qo'zg'ab, ezgulikni ulug'lashga chorlaydi.

O'quvchilarga singdirilishi lozim bo'lgan amaliy ko'nikma va nazariy bilimlar badiiy ijodning ana shunday muhim qonuniyatlarini chuqur tushunishlari uchun imkon yaratmog'i shart. Buning uchun o'qituvchi o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

1. epik asar timsollari, syujeti va kompozitsiyasi, epizodlari ustida ish olib borish orqali asar g'oyasini, qahramonning ruhiyatini yoritishga va adabiy timsol qiyofasini gavdalantirishga xizmat qiluvchi tasvirlarni tanlash, ifodali o'qish, sharhlash;
2. o'quvchilarni asar matni ustida ishlash jarayonida badiiy til xususiyatini o'rganishga yo'llash;
3. yozuvchi uslubining o'ziga xos jihatlarini aniqlashga erishish vositasida o'quvchilarni san'at asarlarini badiiylik va haqqoniylik tamoyillari asosida baholashga o'rgatish.

2.3. Portret asosida qahramon ruhiyatini o'rganish

YOzuvchi uslubini o'rganish adabiyotshunosligimizning doimo va aktual masalalaridan biridir. Chunki yozuvchilarimizning uslubiy izlanishlari va ana shu izlanishlar jarayonida erishilgan ijodiy muvaffaqiyatlari evaziga adabiyotimiz boyib, rivojlanib boradi. Binobarin, har bir yozuvchining o'z individual uslubi bo'lib, juda ham serqirradir. Uslubning har bir qirrasida esa o'z navbatida maxsus tadqiqotlar olib borishini taqozo qiladi. Personojni jonli, o'quvchi tasavvur qila oladigan tarzda tasvirlashda uning qiyofasi – portreti, bo'y-basti, harakatlari, nigohi, ovozi, gapirishidagi o'ziga xoslik va boshqa ko'p tomonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tarixiy asarlarda, bosh qahramon tarixiy shaxs, ulug' siymo bo'lgan asarlarda portret yaratishning o'ziga xos murakkab tomonlari yo'q. emas. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan «Ulug'bek xazinasida» roman qahramoni Ulug'bek ular hayot vaqtlarida va undan so'ng o'tgan besh asr mobaynida turli adabiy-tarixiy memuar xarakterdagi asarlar bitilgan bo'lib, ularda ulug' siymolar qiyofalariga doir ma'lumotlar ham mavjud. Mo'yqalam sohiblari, shartli bir tarzda bo'lsa ham, o'z minatyuralarida ularning portretlarini yaratishda harakat qilganlar.

Odil YOqubov mavjud materiallar asosida o'z fantaziyalariga erk bergan holda, tarixiy haqiqatdan uzoq bo'lmagan Ulug'bek va boshqa tarixiy va to'qima obrazlarning portretlarini yaratdi. «Ulug'bek xazinasida bosh qahramon hayotining oxirgi yil va oylari tasvir asosida olinadi, lekin lirik chekinishlar, xotiralar, tush va boshqa yo'llar orqali uning yoshligi, taxtda o'tirgan podsholik yillari bilan bog'liq voqealar ham kiritiladi. Natijada Ulug'bekning portreti bilan bog'liq tasvirlar o'ziga xos bir xarakter kasb etadi.

O'quvchi Ulug'bekni aksari o'ylayotgan, o'z-o'zi bilan beadam kurashayotgan vaziyatda ko'radi.

Ulug'bek obrazini yozuvchi asosan uning shogirdi, Ulug'bek o'limidan so'ng ham unga sodiq qolgan, u yaratgan va yiqqan asarlarni kelajak avlodlarga ulgurmagan tadqiqotlarni tugatish choralarini ko'rgan zamonasining katta allomasi Ali Qushchi (tarixiy shaxs) ning zahmatli mehnati, boshqa shogirdlarining faoliyatlari yordamida yaratadi. Zamondoshlaridan Ali Qushchidan boshqa kim ham Ulug'bek donishmand podsho haqida mushohada yurita olar edi.

Roman sahifalarida Ali Qushchi vazifasi Ulug'beknikidan ko'plik qiladi. U o'z faoliyatini ham shoh va ham olim Ulug'bek faoliyatini ko'rsatish vazifasini bajaradi. SHu tariqa o'quvchi Ulug'bek portretini asosan Ali Qushchi tasavvurida, tushunishida, izohida, sharhida ko'rishga muayyan bo'ladi. Ulug'bekni asar voqealariga birinchi olib kirgan ham Ali Qushchi bo'ladi. «Uning sal to'lisha boshlagan novcha bo'y-bastida, misday qoramtir uzunchoq yozida, qalin qoshlar tagidan tikilib qaragan o'ychan nigohida ham temuriylarga xos kishini o'ziga rom etuvchi shiddat, ham qandaydir pinhoni majruhlik bor edi»⁸

O'g'li Abdullatifning otasi tomon qo'shin tortib kelayotgani, shu munosabat bilan Ulug'bekni band etgan, unga tinchlik bermas ziddiyatlarga to'la fikr-o'ylar, ruhiy kichinmalar uning tashqi ko'rinishida yaqqol aks etadi. «Uning cho'zinchoq qoramag'iz yuzi so'lgan, keng peshonasi va qiyg'ir burnining ikki yonidagi ajinlar quyushgan» edi. YOzuvchi bu tasvirda yuqorida keltirilgan portret chiziqlarini to'ldiradi va bu chiziqlar uning ruhiy kechinmalari darajasini ifodalashga ko'maklashib turadi. Axir Ulug'bekning boshqa tarixda o'tgan behisob hukmronlardan eng muhim farqi ham uning fikrlovchiligi, izlanuvchanligi, biror bir taxt sohibini qiziqitirmagan osmon sirlarini o'rganishga hayotning ko'p vaqtini bag'ishlashi emasmidi. Uning asosiy maqsadi, nima bo'lsa ham, qanday badnomlik hisobiga bo'lmasin, taxtni saqlab qolish bo'lmagan.

Romanning eng dramatik sahifalaridan bo'lgan Ulug'bekning Abdullatif bilan ko'ksaroyda uchrashuvi voqeasi sanaladi. Ulug'bek bilan Abdullatif uchrashuvlari ota va bola tarzida emas, balki ikki bir-birini tushunishi mumkin bo'lmagan ashaddiy dushmanlar uchrashuvlari tarzida kechadi.

Ulug'bek taxtdan mahrum etilgan bo'lsa ham uchrashuvni Ulug'bek boshqaradi. Podsho Abdullatif esa, otasi Ulug'bek ko'ziga tik qarab, uning harakatlarini, qiyofasini kuzatishga jasorat etmaydi. Ulug'bek o'ziga qilich ko'tarib chiqqan o'g'lini obdon kuzatadi, uning har bir harakatini, qiyofasini o'rganadi va sharhlaydi. Abdullatifning portret chiziqlari Ulug'bekning sharxi orqali allaqanday qo'rqinchli bo'lib keladi. Bu uchrashuv asnosida, Ulug'bekning

^{8 8} YOqubov. O. «Ulug'bek xazinasini» T. 1993 y.

har bir gapidan asablari jumbushga kelgan bo'ladi. Ulug'bek ustidan kutub bo'lmasligi ma'lum bo'ladi. Ulug'bek ustidan chiqariladigan hukm ham aniqlanadi. Podsho Abdullatif otasi bilan suhbatdan o'ziga aniq xulosa chiqaradi. Ulug'bek tirik yurar ekan, u qaerda bo'lmasin, nima bilan shug'ullanmasin aqli, iste'dodi, odamlarga o'z ta'sirini o'tkaza olish iqtidori bilan unitilib ketishi aslo mumkin emas edi. Demak, Ulug'bekning yo'qotish kerakligiga Abdullatif shu suhbat asnosida yana bir bor ishonch hosil qiladi, undan qo'rqdi.

Ulug'bek qatl ettirgach, Abdullatif qisqa vaqt tinchigandek ham bo'ladi. Lekin bu tinchlik uzoqqa cho'zilmaydi, uning so'nggi holati Ali Qushchi bilan bo'lgan muloqotlarida ham ko'rinadi.

Oxirgi marta Abdullatif bilan uchrashgan Ali Qushchi hayron qoladi. O'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolgan, ko'ziga taxtdan, jonidan boshqa narsa ko'rinmay qolgan Abdullatif Ali Qushchining yuziga tikilish, sinash, umuman qiyofasini o'rganishga holi qolmasligi bilan ham tasdiqlanadi. Abdullatifning holati uning jon talvasasidan darak berib turadi., u hayotining oxirida yolg'iz qoladi, unga na sirdosh, dardkash, na bir maslahatchi topiladi.

Romanlarda asar voqealarida ishtirok etmagan, lekin ishtirok etganlar orqali sirtidan kiritilgan personajlar ham bor. Ularning asardagi o'rni va roli turlicha. Bizni qiziqtirgan tomoni ular portretlarining yaratilishi bilan bog'liq. SHundaylardan biri Amir Temur obrazidir. O'z taqdiri haqida ko'p o'y suradigan bo'lib qolgan Ulug'bek kuni bitib qolganiga aqli etadi. SHunday damlarda uning xayollari uzoq o'tmishga, baxtli, beteshvish kunlarga – yoshligi, bobosi Temur, momosi Saroymulk xonim bilan kechgan osuda davrlarga ketadi: «Bobosi Amir Temur ot, yuzli, qiyg'ir burun, siyrakkina cho'qqi soqol odam edi. Undan hamma hayiqar, u siyrak qoshlarini chimirib, o'tkir ko'zlari qadalib qaraganda, hech ham tob berolmas edi...». Bu portretda ob'ektiv tasvir etaklovchi qiladi.

Xulosa.

Odil YOqubov – o'zbek adabiyoti taraqqiyotining 50-yillar o'rtalaridan boshlangan yangi bosqichida etishgan avlodning karvonboshilaridandir. U o'zining faol ijtimoiy ishlari, jurnaliktik va ijodiy faoliyati bilan respublikamizdagi adabiy-badiiy tafakkur rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan adib sifatida e'zozlanadi. Uning «Muqaddas», «Qanot juft bo'ladi», «Matluba» qissalari, «Ulug'bek xazinasini», «Ko'hna dunyo», «Diyonat», «Oq qushlar, oppoq qushlar», «Adolat manzili» romanlari o'z vaqtida keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortadi, qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Adibning «Ulug'bek xazinasini» va «Diyonat» romanlari jahon xalqlarining ko'pgina tillariga tarjima qilingan. Adib asarlari avvalo hayotiyligi, davrning o'tkir ijtimoiy, ma'naviy-ahloqiy masalalarini dadil o'rta qo'yganligi, inson va uning qalbi haqidagi haqiqatni yangi tomonlardan ochishga qaratilganligi, inson hayoti ma'nosi xususidagi ehtirosli bahs-munozaralari bilan ajralib turadi. YOzuvchi o'zbek romani poetikasiga ko'pgina yangiliklar olib kirdi.

«Ulug'bek xazinasini» faqat adib ijodida emas, o'zbek romanchiligi rivojida ham yangi bir bosqichni tashkil etadi. Unda yozuvi bor mahoratini, qahramon dunyosidagi iztirobli kechinmalarni tabiiy tasvirlashga yo'naltirgan. Til imkoniyatlarining ma'lum bir qismi o'sha iztiroblar iskanjasidagi inson qiyofasini ko'z oldimizda gavdalantirishga xizmat qilgan bo'lsa, boshqa qismi uning ruhiy holatini tasvirlashga, kechinmalar, tuyg'ular ruhini to'laligicha ifoda etishga qaratilgan.

Bosh qahramon dunyosidagi iztiroblar chuqurlashib, kechinmalardagi murakkablikni ifoda qiladi.

YOzuvchi obraz yaratish, asar mag'zini ochi shva unga milliy tarovat baxsh etishda ruhiy holatlar tasviridan ustalik bilan fodalanadi.

Adabiy ta'limda «Ulug'bek xazinasini» romanini o'rganishda asarda ma'naviy-ahloqiy muammolarning asosiy o'ringa qo'yilgani (ota-o'g'il munosabatlari, o'g'li padarkush nomini olmasin degan maqsadda Ulug'bekning taxtdan voz kechishi va boshqalar) ta'kidlash zarur.

Asar markazida Ulug'bekning ma'naviy xazinasini – u yaratgan ilm-fan, u to'plagan kitoblar taqdiri masalasi turganligini o'quvchiga etkaza olish zarur.

Mohir o'qituvchilarimizning muvaffaqiyatlaridan biri o'quvchilar faoliyatini boshqarishni bilish, ularning psixologiyasi, qiziqishlari va salohiyatini hisobga olgan holda usul tanlashdir. Mazkur BMI yozishda biz quyidagi usullarni tanladik.

Ma'lumki, ta'lim ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning natijasi ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Umuman, ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyatini uyg'unlashishini taqozo etadi.

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatini uyg'unlashtirishda ular orasidagi muhim vosita - o'quv topshirig'idir. Adabiyot o'qitishda o'quv topshirig'i matn ustida ishlash va o'quv savollari shaklida namoyon bo'ladi.

Matn ustida ishlash – topshiriqning keng tarqalgan turi. U o'quvchilarning egallagan bilimi, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, egallanishi ko'zda tutilgan o'quv materialini ijodiy izlanish orqali o'rganishga qaratilganligi bilan ham xarakterlidir.

Yuqorida biz amaliyot davrida olgan tajribamizdan kelib chiqqan holda, ta'limning turli bosqichlarida Odil YOqubovning «Ulug'bek xazinasini» romanini o'qitishning «Taqqoslash», «Guruhlash», «Umumlashtirish» kabi samarali usullaridan foydalanish haqida to'xtalib o'tdik.

Bu usullardan foydalanishimizdan maqsad o'quvchilarda ijodkorlik, erkin fikrlash, so'zlash madaniyatini rivojlantirish va so'z boyligini oshirishdir. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

Asarning syujeti, timsollari asosida muammoli vaziyatlarni, bu muammolar asosida qay tariqa aks etganligi va o'quvchilarning ularga munosabatini aniqlab olish; o'quvchilarni asar tahliliga jalb qilib, tahlil asosida Odil YOqubovning uslubi va mahoratining yangi qirralari, jozibasini ko'rsatib berish, asar yuzasidan o'tkazilgan bahs-munozara natijasida o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash malakalarini takomillashtirish .

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'qituvchining mavjud bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda berganidan ko'ra, egallanishi lozim bo'lgan bilimlarni yuqorida

bayon etilgandek, o'quvchilarning o'zlari o'zlashtirishlariga erishilsa, uning natijasi yaxshi bo'ladi. O'quvchining o'zi bevosita ishtirok etgan bilim olish jarayoni doimo esida qoladi.

Foylanilgan adabiyotlar

1. I.A. Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» Toshkent. «SHarq» nashriyoti. 1998 y
2. O. SHarofiddinov. «Birinchi mo'jiza» Toshkent. 1978 y
3. D. Mo'minov, O'. Muhiddinov. «Adabiy portretlar» Toshkent. 1985 y
4. A. Xudoyberdiev. «Parvoz davom etadi» Toshkent. 1980 y
5. M. Qo'shjonov. «Qalb pokligi» Saylanma. 1-tom. Toshkent. 1987 y
6. S. Mirvaliev. «Roman va zamon» Toshkent. 1983 y
7. U. Normatov. «Etuklik» Toshkent. 1979 y
8. G. Imomova «Ruhiy iztiroblar» Toshkent. «YOzuvchi» nashriyoti. 1992 y
9. N. Karimov. «Ijod va iste'dod» Toshkent. 1985 y
10. O. Tog'ayev. «Ibratli saboqlar» Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987 y
11. Q. YO'ldoshev. «YOniq so'z». Toshkent. «YAngi asr avlodi» 2006 y
12. R. Otaev. «El ardog'idagi yozuvchi» Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2006 y 6-son.
13. X. Sodiqova. «Potretlarda yozuvchi qiyofasi» «Jahon adabiyoti» jurnali 2004 yil. Avgust oyi.
14. D. Usmonova. «YUqori sinflarda O. YOqubov asarlarini o'rganish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali. 2002 y 1-son.
15. U. Solijonov «Tengdoshlar»dan «Adolat manziligacha» «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi 2006 y. 5 son.
16. S. Karimova. «Kompozitsion mukammallik yo'lida» «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. 1991 y. 6-son.
17. M. SHodmonova. 9 sinfda Odil YOqubovning «Ulug'bek xazinasini» romanini o'rganish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali. 2008 y. 11-son 30-bet.
18. N. Karimov. B. Nazarov. «Adabiyot» 9-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T. 2008 y. 111-119 b

Foydlanilgan matnlar.

1. Odil YOqubov. «Ulug'bek xazinası» Roman. Toshkent.
2. Qozoqboy YO'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek YO'ldoshbekov. «Adabiyot» Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent. 2006 y. 260-281 b